INSONIYAT KELAJAGI, TARAQQIYOT TAQDIRI – UNUMDOR TUPROQ MUHOFAZASIDA...

Bobomurodov Shuhrat Mehribonovich,

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti, direktor,
e-mail: shuhrat_bm@inbox.ru



Dunyo o‘zgarmoqda. Aholi soni ortib bormoqda. Kun sayin dunyo bo‘ylab oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yerdan foydalanish go‘yoki o‘zining chegarasiga yetib borayotgandek. Iqlim sezilarli darajada o‘zgarib yashash tarzimizga ham ta’sir eta boshladi. Shu bilan birga, odamlar sog‘lom, xavfsiz oziq-ovqatga ko‘proq ehtiyoj sezishmoqda.

Har bir davlatning oziq-ovqat xavfsizligi bevosita tuproqning holatiga bog‘liq. Shu boisdan mamlakatimizda tuproq unumdorligi va sog‘lomligini saqlab qolish uchun siyosat va rag‘batlar zarurligi haqidagi xabardorlik ortib borganligi sabab «Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolandi.

Ana endi davlat tomonidan tuproqlarimiz rasmiy huquqiy maqomga ega bo‘ldi. Ushbu qonun, ya’ni tuproq siyosati O‘zbekiston hududida barqaror tuproq sifatiga erishish va uni saqlashga qaratilgan. Shuningdek, u sog‘lom turmush muhiti va tuproqdan turli maqsadlarda foydalanish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, masalan, uy-joy qurish uchun shaharsozlikda foydalanish, foydali qazilmalarni qazib olish, ekinlarni almashlab ekish va hokazo...

Shu bilan birga yerlarni huquqiy muhofaza qilishda muammolarni hal qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi: tuproqning unumdor qatlamini saqlash, buzilgan tuproq qoplamini tiklash, undan foydalanish uchun yaroqli holga keltirish, qishloq xo‘jaligida foydalanishdan asossiz olib qo‘yilishining oldini olish, tuproq unumdorligini oshirish va tiklash, ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik, tuproqqa oid tadqiqotlarni o‘tkazishda hamkorlik qilish, tuproqning sho‘rlanishi, eroziyasi va sifatini pasayishiga qarshi kurashish, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Afsuski, so‘nggi yillarda unumdor tuproqlar hajmining qisqarishiga tabiiy va inson omili - antropogen ta’siri ortib borayotgani sabablari olimlar tomonidan tadqiq etilib va ta’kidlanib kelinmoqda. Global iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari, tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo‘ronlari, suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillikning qisqarishi, hosildorlikning keskin pasayishi va yerlar degradatsiyasining kuchayib borishi oziq-ovqat xavfsizligini kafolatli ta’minlashga to‘sqinlik qilishi bor gap.

4 bob, 29 moddadan iborat mazkur qonun - atrof-muhit xavfsizligining ustuvorligi bo‘lmish tuproqlardan sama-

rali va ehtiyotkorlik bilan foydalanish, ularning sifati va unumdorligini saqlash hamda tuproqlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilish kabi dolzarb masalalarga e'tiborni qaratadi.

Misol uchun, Qonunning 10-moddasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan. Unga ko'ra, endilikda yurtimizda tuproqni muhofaza qilish va unumdorligini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini yurita boshlaydi. Shu bilan birga mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuproqni muhofaza qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirib, bu borada davlat nazorati amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, tuproq monitoringini amalga oshirish tartibini, tuproqni unumdor qatlamini sidirib olish, saqlash va undan foydalanish tartiblarini belgilash ham kiritilgan. Bu ushbu qonunning asosiy o'zagi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, unumdor tuproq qatlamlarining buzilishi evaziga shaharsozlik yo bo'lmasa biron bir sanoat korxonasining qurilishi natijasida o'z-o'zidan yo'qolishining oldini olishga qaratilgan.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida bir yilda o'rtacha 20-25 ming gektar sug'oriladigan eng unumdor yerlar qurilish maqsadlarida ajratib berib yuborilgan. Aholi sonining o'sishi bilan sug'oriladigan yerlar toifasi ham tobora qisqarib borgan.

Shu sababdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-sonli qarori bilan 1 mln gektar yerlarni o'zlashtirish topshirig'i berildi va shu kungacha qariyib 700 ming gektar yerlar qishloq xo'jaligi foydalanishiga kiritildi.

Yana qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, tuproqning unumdor qatlami sidirib olinmaganligi va saqlanmaganligi fakti aniqlanganda, yetkazilgan zararning o'rni mahalliy budjetga qoplanadi. Mazkur pul mablag'laridan qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan sug'oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun foydalaniladi.

Prezidentimiz joriy yilning 13-fevral kuni yana bir muhim xujjat (№ PQ - 71-son) «Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorga imzo chekdi.

Ushbu qarorning asl maqsadi yangidan yer o'zlashtirgandan ko'ra, mavjud sug'oriladigan yerni unumdorligini oshirish hisobiga ekvivialent hisobida yerga yer qo'shish bo'lsa, ikkinchi tomonidan yer o'zlashtirish bilan bog'liq juda katta mablag' va resurslarni, ayniqsa, suvni tejash hisoblanadi.

Soha mutaxassislari tahlililariga ko'ra, oxirgi 30 yil mobaynida sug'oriladigan tuproqlarda gumus miqdori 10-15 foizga kamaygan, boshqacha aytganda, boy berilgan sug'oriladigan ekin yerlar maydoni ekvivalent hisobida 450 ming gektarni tashkil qiladi.

Tuproq unumdorligini belgilab beruvchi gumus miqdori sug'oriladigan yerlarning 68 foizida, harakatchan fosfor va kaliy miqdori esa 75 foizida past darajada ta'minlangan, sug'oriladigan tuproqlarning 53 foizi turli darajada sho'rlangan.

Amaldagi mavjud 4,2 mln gektar sug'oriladigan yerlarning unumdorligini 1 ballga oshirilgan taqdirda ekvivalent hisobda 75 ming gektar, 5 ballga oshirilganda esa 375 ming gektar yer o'zlashtirilganga teng bo'ladi. Shu bilan birga, sug'orish me'yorlari ham kamayib, suvni iqtisod qilinishiga erishiladi, ya'ni tuproq unumdorligi ortishi bilan tuproqda suvning uzoq muddat saqlanishi hamda mineral o'g'itlarni o'zlashtirish darajasi ortib boradi. Buning natijasida

ISSN 2181-0826 1/2024 y.

suv sarfi va mineral o‘g‘itlar hamda ishchi kuchiga sarf bo‘ladigan xarajatlar iqtisod qilinishiga erishiladi.

1 gektar sug‘oriladigan yerning unumdorligi shartli ravishda 5 ball oshganda, o‘rtacha hisobda ekinlarni joylashtirilishidan kelib chiqib, paxtadan 2 s/ga (200 ming tonna), bug‘doydan 3 s/ga (300 ming tonna), sabzavotlardan 15 s/ga (250 ming tonna), karotoshkadan 13,5 s/ga (70 ming tonna) yuqori hosil olishga erishiladi.

Bugungi kunda 1 gektar sug‘oriladigan yerlarni o‘zlashtirish uchun o‘rtacha 35 mln so‘m, lalmi va yaylovlarda esa 12 mln so‘mni tashkil etmoqda. Ushbu o‘zlashtirilgan maydonlarda ekinlarni suv bilan ta’minlash maqsadida, amaldagi suvli maydonlarga suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash natijasida iqtisod qilingan suvlar hisobidan yetkazib beriladi.

Mazkur xujjat bilan 2024-2025 yillar tajriba tariqasida paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorligini oshirish bo‘yicha agrotexnik tadbirlar uchun yerdan foydalanuvchilarga har bir gektar maydonga 1 million so‘mdan subsidiya ajratilishi belgilandi.

Yuqorida tilga olingan siyosat va rag‘bat tushunchalari yurtboshimizning ushbu qarorida o‘z aksini topishi kelgusida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning unumdorligini oshirish barobarida ekinlardan mo‘l va sifatli ekologik mahsulotlar yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarorga ko‘ra, 2024-2025 yillarda tajriba tariqasida respublikaning 13 ta tumanida tuproq unumdorligini oshirish uchun maqsadli subsidiya ajratish tizimi joriy qilinmoqda. 13 ta tumanning 127 ming gektar paxta maydonlarida (jami maydonning 37 foizi) maqsadli subsidiya ajratish tizimi joriy qilinadi hamda moliyalashtirish Davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi (127 mlrd so‘m). Subsidiya miqdori har gektar uchun 1 mln so‘mni tashkil qiladi. Davlat tomonidan belgilangan ushbu rag‘bat esa yerdan foydalanuvchilar hosildorlikni 10 foizga oshirgan taqdirdagina berilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek tajriba doirasida tuproq bonitet balli amaldagiga nisbatan 3 ballgacha oshganda, yer solig‘i stavkasi 25 foizga, 3 ball va undan oshgan hollarda 50 foizga kamaytiriladi. Bunda, yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar 3 yil muddatga amal qilishi belgilangan.

Qaror ijrosi bo‘yicha Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti olimlaridan iborat ishchi guruh subsidiya ajratish tajribasi joriy qilingan maydonlarda ishlarning bajarilishini nazorat qiladi. Mazkur guruh belgilangan joyga chiqqan holda tuproq unumdorligini oshirish chora-tadbirlarining bajarilishini monitoring qilib boradi.

Gumus tuproq unumdorligini ta’minlovchi eng muhim qismdir. Unda o‘simlikning asosiy oziq elementlari mavjud. Tuproqning gumus miqdorini oshirishda agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va har bir fermer xo‘jaligiga yetkazib beriladi. Yerdan foydalanuvchilarga gumusli o‘g‘itni hududlarda qo‘llashdan oldin tuproqshunos agrokimyogar olimlar tomonidan tarkibida zarur gumin kislotasi va o‘zlashuvchan fosfor mavjud ekanligi yuzasidan xulosalar beriladi.

Muxtasar qilib aytganda tuproqlar hayot uchun asosdir. U bizni oziq-ovqat bilan ta’minlaydi. Bir hovuchi oltinga teng tuproqlarimizning davlat tomonidan g‘amxo‘rlik qilinishi ayni muddaodir. Kelajak avlodlarga sog‘lom tuproqlar qoldirish esa har birimizning burchimizdir.